

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14740259>

## O‘QITUVCHINING LOYIHALASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH -PEDAGOGIK, MUAMMO SIFATIDA

**Eshmurodova Sabrina**

TDPU

BT yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Butun dunyoda kasbiy faoliyatini samarali loyihalay oladigan mutaxassislarni tayyorlash masalasiga bo‘lgan e’tibor kuchayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimi barcha bosqichlarida o‘quvchi va talabalarni loyihalash faoliyatiga jalb qilish, unga munosib shart-sharoit yaratishga respublikamizda ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Bu xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz–yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, -deb ta’kidlaydi[1;2]. Shunga asosan, maqolada o‘qituvchining loyihalash xususiyati borasida fikr yuritiladi.

Loyihalash usuli xususida qator ilmiy tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, umume’tirof etiladigan yagona bir fikr shakllanmagan Pedagogik loyihalash tushunchasi mazun-mohiyatini anglashga qaratilgan manbalar tahlili bizga quyidagilarni aniqlash imkonini berdi.

Buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlarida ta’lim jarayonini loyihalash mohiyatan muhim sanalgan va unga jiddiy e’tibor qaratilgan. Jumladan, Beruniy ilmiy bilishning yangi metodlarini ishlab chiqdi va rivojlantirdi. Olim ma’lumotlarga tanqidiy yondashish, ularni taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash, tizimlashtirish borasidagi g‘oyasini ilgari surdi [2;186].

Mahmud Qoshg'ariy ilm egallashda tartib, reja, sa'y-harakat, e'tiqod butunligi, o'z-o'ziga hisobot berish, barcha kuch va diqqatni ishga solish, vaqtni bekor o'tkazmaslik, mashoyihlar so'zlarini diqqat bilan tinglash, aqlni charxlab turish lozimligini uqtiradi[2;187]. E'tirof etilayotgan fikrlar buyuk ajdodlarimizning o'qitish jarayonini loyihalash masalasiga qadimdan e'tibor qaratganligini ko'rsatadi.

O'qitishni loyihalash masalasi XIX asrning 2-yarmida AQSHda paydo bo'lgan, uning asoschisi amerikalik pedagog va psixolog Jon Dyui sanaladi. 1918-yilda Kolumbiya universiteti o'qituvchisi Vilyam Kilpatrikning "Loyihalash metodi" nomli maqolasi pedagogik loyihalash masalasining rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Pedagogik entsiklopediyada "Loyiha usuli - bu o'quvchilarning bosqichma-bosqich murakkabroq amaliy vazifalarni - loyihalarni rejalashtirish va bajarish jarayonida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quv tizimi" sifatida talqin qilingan.

Professor N.A.Muslimovning ta'kidlashiga ko'ra, loyihalash ta'lim texnologiyalari unga qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi [2;186].

B.X.Xodjaev o'quv jarayonini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsadini, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va birbiri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratishni tavsiya qiladi [6;24].

Professor M.Barakaev pedagogik loyihalash tadqiqot natijalarini qo'llash, aniq amaliy o'quv-biluv faoliyatida qo'yilgan muammoning yechimini izlash, ma'lum bir "maxsulot" yaratishda o'quvchiga nazariy bilimlarning ahamiyatini anglashga imkon beradi, deb hisoblaydi [4;32].

Bir qator taniqli mualliflarning ma'lumotlariga asoslanib, pedagogik loyihalarning bir nechta tasniflarini ajratish mumkin:

- loyiha asosiy usullari bo'yicha: tadqiqot, ijodiy, o'yin, axborot, amaliyotga yo'naltirilgan, aralash;

- loyiha ishtirokchilari soniga qarab: yakka, juftlik, guruhli, jamoaviy;
- loyiha predmeti mazmuni bo'yicha: monoloyihalar-bir o'quv predmeti doirasida, fanlararo, o'quv predmetidan tashqari-ixtiyoriy tanlov asosida;
- loyiha muddati bo'yicha: mini-loyihalar bir darsdan kam, qisqa muddatli bir yoki bir nechta dars, haftalik, o'rta muddatli bir haftadan bir oygacha, uzoq muddatli bir necha oygacha.

Manbalarning nazariy tahlili pedagogik loyihalashga nisbatan ta'lim metodi, o'quv faoliyatini tashkil etish shakli, o'quvchi-o'quvchilarning bilish faolligini oshiruvchi vosita singari uch xil qarash mavjudligini ko'rsatdi. Shuningdek, pedagogik loyihalashning uzluksiz ta'lim tizimidagi asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-o'quvchilarning berilgan topshiriqlarni bajarishlarida, o'z faoliyatlarini rejalashtirishi, mustaqil ijodiy bajargan ish natijasini baholay bilishi;

-o'quvchilarning topshiriqni bajarish usullarini to'g'ri tanlashi va amalda tatbiq eta bilishi;

-bilishga qiziqish uyg'otilishi, o'quvchilarni mustaqil intellektual faoliyatga undovchi muammoli vaziyatlar yaratilishi;

-o'quvchilarning mustaqil ijodiy faolligini namoyon qilishi.

Pedagogik loyihalarni didaktik maqsadi, mazmuni va murakkablik darajasi hamda ijodiy yondashilishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

Loyihalar xarakteriga ko'ra: aniq natija olishga mo'ljallangan loyihalar; ko'p yo'nalishtirishli natija olishga mo'ljallangan loyihalar. Loyixada ishtirok etadigan qatnashchilar soniga ko'ra: yakka tartibdagi loyihalar; ikki o'quvchiga mo'ljallangan loyihalar; o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan loyihalar.

Loyiha muddatiga ko'ra: qisqa muddatga mo'ljallangan loyihalar; uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalarga ajratiladi.

O'qituvchining mashg'ulotlarda loyihalash faoliyatini tashkil etish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni ajratib ko'rsatdik:

1. Berilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkam bo'lishiga yo'naltirilgan loyihalarni yaratish va qo'llash.

2. Loyihalashda talabni bajarimaslik o'quvchilarni topshiriqning mohiyatini anglab yetmaslikka olib keladi. vaqtning ko'p sarflanadi va loyihalash sifatining pasayadi.

3. Darsda loyihalash mazmuni qat'iy belgilangan bo'lishi, topshiriqni mas'uliyat bilan bajarishga qaratilishi.

4. Mashg'ulotni loyihalash ko'rgazmalilikka asoslanishi zarur.

5. Berilayotgan topshiriq bir qolip asosida bo'lmasligi, o'quvchilar bilish qobiliyati va tashabbusini rivojlantirishga xizmat qilishga yo'naltirilishi.

6. Topshiriqlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, turli vaqt oralig'ida bajarilishga mo'ljallanishi.

7. Darsni loyihalashda o'quvchilarning bilimi baholashga differentsial yondashilishi.

Xulosa qilib aytganda, mashg'ulotlarda amalga oshiriladigan loyihalash ishlari algoritmlarni qo'llash madaniyatini egallash tarzida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni ongli hamda muvaffaqiyatli o'zlashtirish omili sifatida belgilash mumkin.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1.07.2017-y. 2-bet.

2. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik. Birinchi jild. Tuzuvchi mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil; tahrir hay'ati: M.Xayrullaev va boshqalar. – T.: «O'qituvchi», 1995. -186-b.

3. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik. Birinchi jild. / Tuzuvchi mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil; tahrir hay'ati: M.Xayrullaev va boshqalar. – T.: «O'qituvchi», 1995. -186-b.

4. Barakaev M., M.Tojiev, D.Yunusova, K.Mamadaliyev. *Matematika o'qitish texnologiyalari va loyihalash. // Darslik.* – T.: «. », 2018. – 32 b
5. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo'jaev A.A., Qodirov H.Sh. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent "Voriss" nashriyoti – 2019. 56- b.
6. Ходжаев Б.Х., Шоназаров Ж.У., Рахимов З.Т. Касбий педагогика. Ўқув қўлланма. Тошкент "Ворис" нашриёти – 2019. 24-б.